

XORAZMNING ANTIK DAVRI TARIXIGA OID YOZMA MANBALAR*Tnibekov Ruslan*

Annotatsiya. O`zbekiston tarixi jumladan O`rta Osiyo tarixi azaldan dunyo tarixida muhim o`rin tutadi. ushbu maqolada O`rta Osiyodagi ilk davlatlar paydo bo`lgan hududlardan biri Xorazm hududining tarixini Antik davr tarixchilarining manbalari orqali tahlil qilamiz.

Kalit so`zlar: antik tarix, yozma manbalar, Gerodot. Ellinizm , Yunon madaniyati.

Abstract. The history of Uzbekistan has always played an important role in the history of Central Asia. In this article, we will analyze the history of the Khorezm region, one of the first states in Central Asia, through the sources of ancient historians.

Key words: ancient history, written sources, Herodotus. Hellenism, Greek culture.

Аннотация. История Узбекистана всегда играла важную роль в истории Средней Азии. В данной статье мы анализируем историю Хорезмской области, одного из первых государств Средней Азии, по источникам древних историков.

Ключевые слова: древняя история, письменные источники, Геродот. Эллинизм, греческая культура.

Antik mualliflar qadimgi qalalari tog`risida deyarli hech qanday ma`lumot qoldirishmagan. Ammo ko`p narsalar haqida, yani antik madaniyatning, hunarmandchilikning va irrigatsiyaning gullashi va hammadan oldin ijtimoiy tengsizlikning tezlik bilan rivojlanishi haqida o`ng va chap qirg`oq Xorazmdagi arxeologik yodgorliklar guvohlik beradi.

Xorazm ilk marta Avestoda eslatiladi hamda qadimgi fors tilida "Behistun" va Naqshi Rostam qoyalari bitilgan. Ahamoniylarning Persopol, Suza saroylaridan va Xamadondan topilgan yozuvlarda, qadimgi yunon mualliflari Miletlik Gekatey, Gerodot, Strabon, Ktesiy, Arrian, Kvint Kurtsiy Ruf va boshqalarning asarlarida, sosoniylar yozuvlarida tilga olinadi. XX asr boshlarida nemis olimi V.Markvart Avesto matnini organib "Xorazm davlati" mavjudligini ilmiy jamoatchilikka elon qilgan edi. Xorazm davlatining qadimgi hududi masalasi bo`yicha olimlarimiz o`rtasida ikki yo`nalish paydo bo`lgan.

Birinchi guruh olimlar V.Markvart, Kissiling, V.Bartold, S.P.Tolstov, Ya.G`ulomov, M.G.Vorobyova kabi olimlar Xorazm davlatining markazi quyi Amudaryo boylari, uning hukmronlik doirasi Sharqiy Eron, Shimoliy Afg`oniston, Turkmaniston hududlarini qamrab olgan, degan fikrni bildirishgan.

Ikkinchi guruh olimlari I.Gershevich, V.M.Masson, V.Pyankov, B.Vaynberg, A.Sagdullaev, S.P.Tolstov, A. Asqarovlar Xorazm davlati dastlab Tajan va Murg`ob vohalarida mavjud bolgan, keyin esa Ahamoniylar tazyiqi ostida Quyi Amudaryo vohasiga ko`chganlar degan fikr- mulohazalar taklif qildilar. Bu jarayonga akademik A.Asqarov fikr-mulohazalari diqqatga sazovor.

“Xorasmiylarning dastlabki vatani Baqtriyadan janubda, Ariyadan sharqda, Harirud va Xilmend daryolarining yuqori xavzasida, hozirgi Xirot vodiysida bolgan. Ahamoniylar tomonidan tazyiq oʻtqazish orqali Sharqiy Eron qabilalaridan yiliga katta boj olish maqsadida Hilmend togʻ daralaridan oqib chiqadigan soy yoliga togʻonlar qurdirilib, suv yollarini Xilmend-Xorazmiylar yurtiga burib yuborgan, natijada Xorazmiyliklar Amudaryoning quyi havzalariga koʻchishga majbur boʻlganlar”.

Avestoda Oʻrta Osiyoning eng qadimgi madaniy-xoʻjalik viloyatlari toʻgʻrisida maʼlumotlar uchraydi. Bu tarixiy-geografik atamalar yasht kitobida va Videvdatning birinchi bobida qayd qilingan. Yashtda birinchi mamlakat “Aryanam Vayjo” yoki “Aryashayona”. U yurtda koʻp yaylovlarga ega baland togʻlar, keng daryolar va chuqur koʻllar bolgan. Keyingi mamlakatlar Sugʻda, Poruta, Iskata, Mauru, Xvarizam.

Avestoning Yasht qismida ushbu hududlar toʻgʻrisida quyidagi maʼlumotlar qayd qilingan. “U mamlakatning jasur sardorlari koʻpdan-koʻp harbiy yurishlar qiladi, uning yerlari suvga serob keng yaylovlarga ega, togʻlarida chorva tinch otloq va ozuqa bilan taʼminlangan, bu yerdagi chuqur koʻllar toʻlqinlanib turadi, kema qatnaydigan keng daryolar Porukdagi Iskata, Xarayvadagi Mouru, Sugʻddagi Gava va Xvarizam toshib intiladi”.

Videvdatdagi maʼlumotlarga koʻra, Axuramazda Zaratushtraga xabar qilgan. “O, Spitama Zaratushtra odamlar yashaydigan joylarga, bu yerlarda baxt qancha kam boʻlsa-da, tinchlik tortiq qildim. Birinchi odamlar yashashi uchun eng yaxshi mamlakatga, Vahvi Dantya daryosidan Aryanam Vayjoga asos soldim. Shaharlar “varalar” sifatida tasvirlanadi. Videvdat kitobida “Kvadrat Var”lar atamasi mavjud boʻlib, u shunday tasvirlanadi. Yima Varani tort tomoni ot chopishiga teng uzunlikda qilib qurdi va u yer xoʻkiz, odam, it va qushlarning urugʻini hamda yonib turgan olovni koʻchiradi. Varani odamlar yashaydigan joy va qoton qildi. Yima u yerga bir xatr (1,5 kmgacha) uzoqlikdagi joydan suv olib keldi. Unga yerda u hamma tomoni berk turar joylar, uy, gumbaz, hovli qurdi”.

Q.Sobirov, R.Abdirimovlar xulosasiga koʻra Xorazm vohasidagi Koʻzaliqir, Qalaliqir, Oybuyirqala, Bozorqala “varalar” shaklidagi aholi markazlari boʻlgan [6.54-55].

Xorazm tarixiga mansub qimmatli maʼlumotlar Gerodot asarida uchraydi. Muarrixning “Istoriya” asrida “Osiyo bir vodiy bor. Uning hamma tomoni togʻ bilan oralgan, togʻni esa beshta dara kesib otadi. Bir vaqtlar bu vodiy xorazmliklarga qarashli bolib, xorazmliklar, parfiyaliklar, saranglar va tamaneylarning chegaradosh yerlarida joylashgan. Forslarning hukmronligi boshlangach, vodiy fors podshosi hukmronligiga oʻtgan” [7.37.].

Gerodot maʼlumotlariga koʻra, Xorazm parfiyaliklar, sugʻdlar va areyalar bilan birga XVI satrapiyaga kirgan va Doroga 300 talant xiroj toʻlagan. Xorasmiyliklar Kserksning Gretsiyaga yurishida ishtirok etishgan.

Yunon tarixchisi Strabon (miloddan avvalgi 63 - milodiy 23 yillar) Xorazmiylarni massagetlarga taalluqligini qayd qilgan. Muarrixning fikriga

qoshilish mumkin. Massaget qabilalari totemlarida otga sig'inish kuchli bo'lgan. Shu jihatdan bo'lsa kerak, Xorazm tangalarida ot rasmi keng o'rin olgan.

Xorazm haqida mil.avv. IV asrda mustaqil davlat sifatida faoliyat yurganligi haqida malumotlar bor. Qadimgi mualliflar (Kvint Kurtsiy va Arrian) Makedoniyalik Aleksandr Baqtiriyada qishlayotganida (mil.avv. 329-328 yillar) kolxlar va amazonkalarga qarshi ittifoq tuzishni taklif qilib, 1500 otliq bilan kelgan Xorazm podshosini ham eslab o'tishadi.

Xorazm makedoniyalik istilochilarga nisbatan ham mustaqil mavqeda turgan. Arrianning yozishicha Xorazm shohi Farasmon 1500 otliq askari bilan 329 yilning qishida Baqtrada qishlovni o'tqazgan Iskandar huzuriga tashrif buyuradi. Kvint Kurtsiy Ruf Xorazmshoh nomini Fratafern shaklida keltiradi. Yu.A.Rapoportning fikricha, Xorazmshohning ismi Farasman bo'lib, Fratafern uning o'g'li bo'lgan. Xorazimshoh o'g'lini Iskandar qarorgohiga yuborgan. Yunon muarrixlari Iskandar shuxratini ko'tarib ko'rsatish uchun Frataferenni shoh og'li deb yozgan [9.34.]. Iskandar navbatdagi rejasi Hindistonni egalash bo'lganligi sababli, Xorazm bilan ittifoq tuzib, Hindiston yurishidan keyin bu masalaga e'tibor berishni mo'ljallagan bolishi mumkin. Ammo Iskandar mil.avv. 325 yilda Hindistonda Sharq yurishlarini to'xtatib Bobilga qaytadi.

Xorazm Salavkiylar davrida ham o'z mustaqilligini saqlab qoldi. Chunki hududning Salavkiylar davlatiga to'beligi yozma va arxeologik manbalarda o'z tasdig'ini topmaydi. Iskandar va Salavkiylar tajovuziga qarshi kurashlar olib borgan Sirdaryoning o'rta oqimida yashovchi sak(shak) qabilalari mil. avv. IV asr oxiri –III asr boshlarida yarim o'troq Qang' davlatini barpo etadilar. O'rta Osiyoda paydo bo'lgan bu davlatning tarixi bilan ko'plab olimlar (Y.G'ulomov, Y.F.Buryakov, K.Sh.Shoniyozov, M.I.Filanovich)lar shug'ullanishgan. Qang' muommosi S.P.Tolstov ishlarida ham katta o'rin olgan. Olim Avestoda ishlatilgan Urva nomli mamlakatni Xorazm deb tushinadi va ana shu fikriga asoslanib, Xorazm va unga tutash dashtlarda yashovchi barcha sak-massgetlar qabilalarining mil.avv. IV – milodiy I asrlarga oid arxellogik madaniyatni "Qang'uy madaniyati" deb ataydi. S.P.Tolstov Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlari Eron manbalarida Qanha deb atalgan yurtning tub yerlari bo'lganligi, Xorazm esa shu zamining ajralmas bir qismi ekanligini takidlab, Xorazm taraqqiyoti jihatidan birmuncha oldinda bo'lganligi sababli Qanhaga ham siyosiy jihatdan boshchilik qilgan deb hisoblangan edi.

Keyingi yillardagi tadqiqotlar Qang'uy davlati va uning tashkil topgan hududi masalasiga aniqlik kiritdi. Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'istonda olib borilgan keng ko'lamlar arxeologik qazishmalar bu davlat mil.avv. III asrda ikki tilda (sog'diy va turkiy) sozlashuvchi qabilalar va elatlarning Sirdaryoning o'rta oqimida barpo etgan davlati ekanligini ko'rsatdi.

Qang'uy mil.avv. II-I asrlarda O'rta Osiyodagi qudratli davlatga aylanadi. Bu davlatga Sirdaryo havzasidan tashqari qo'shni hududlar bo'ysundirilgan. Aniqlanishicha, S.P.Tolstov fikriga qarama-qarshi o'laroq Xorazm bir muddat Qang'uy tasirida bo'lgan. Qadimgi salnomalarda Qang'ga qarashli 5 ta viloyat

tilga olindi. Shu manoda S.P.Tolstov tadqiqotlarida ishlatilgan “Qang’ madaniyati”, “Qanha-Xorazm”, “Muqaddas Qanxa”, yoki “Qang’yuy madaniyati” tushunchalarin ko`proq Xorazm tarixiy geografik hududi sifatida tushunish maqsadga muvofiqdir.

Abu Rayxon Beruniy keltirgan ma’lumotlarga ko`ra Arshakiylar o`z nasl-nasablarini Xusravning afsonaviy o`g`li – Arsh (Arshak) orqali Siyovush bilan bog`laydilar. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, Arshakiylar bilan Xorazm siyovushlari xonadoni o`rtasida qandaydir sulolaviy qarindoshlik yoki yaqinlik bo`lgan. Xorazmning qadimgi davrga mansub shaharlar to`g`risida Abu Rayxon Beruniyning “Geodeziya” asarida ham keltirilgan, asarda “Ular (Xorazmliklar) daryoning ong va sol sohili hududlarida 300 dan ziyod qishloqlar va shaharlar qurganlar, ularning xarobalari hozirgi kunga qadar saqlanib kelmoqda” [11.67.], deb qayd etgan. Buyuk mutafakkirning bu ma’lumotlari S.P.Tolstovga Xorazm vohasida tarixiy obidalarda keng miqiyosda arxeologik qazish ishlarini olib borishga manba bolib xizmat qilgan.

Adabiyotlar

1. G`ulomov Ya. G`. Xorazmning sug`orilish tarixi.T.,1959,103b.
2. Asqarov A. O`zbek xalqining etnogenizi va etnik tarixi.T., Universitet,2007.113b.
3. Tolstoa S.P. Po drevnim deltam Oksa i Yaksarta. M., Nauka, 1962.S.146-148.
4. Sagdullaev A.S. Avesto-tarixiy geografiyani organish manbasi sifatida// “Avesto” kitobi tariximiz va manaviyatimizning ilk yozma manbai mavzusidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari//T.,2000,35-36b.
5. Tolstov S.P. Novie materialı po istorii kulturi drevnego Xorezma,VDI №3,1946,S.50-55.
6. Sobirov Q., Abdirimov R. Avesto jamiyatida Xorazm vohasi: shaharsozlik va davlatchilik negizlari//” Avesto” kitobi-tariximiz va manaviyatimizning ilk yozma manbai mavzusidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari//T.,2000, 54-55b.
7. Sagdullaev A.S. Qadimgi O`zbekiston ilk yozma manbalarda.T.,1996.37b.
8. Matyaqubov X.H. O`zbek davlatchiligining ilk bosqichlarida Qadimgi Xorazm.t.f.n.avtoref .T.2012.136 b. Arrian.Poxod Aleksandra /Per.M.E.Sergeenko.-M.: -L.,1962.IV.15.4-5.
9. Rapoport Yu.A. Kratkiy ochrek istorii Xorezma v drevnosti //Priarale v drevnosti i srednevekove.M. Nauka,1998. S. 34.
10. Shoniyozov K.Sh.Qang’ davlati va qang’lilar.T.Fan,1990.34b.
11. Abu Rayxon Beruniy. Geodeziya. M., Nauka, 1963. S. 67.